

## **Hindiy tilidagi iboralarda ramz va obrazlarning lingvomadaniy jihati**

Xalq – tarix va madaniyatni, moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi buyuk kuch. Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to‘playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqol va iboralar ana shunday bebaho merosimiz hisoblanadi. Xalq asrlar davomida sayqal berib shakllantirgan iboralar bir badiiy asarga teng bo‘lishi ham mumkin.

Frazeologik birliklar – uzoq vaqt mobaynida xalq madaniyatining rivojlanishida vujudga kelgan, og‘izdan-og‘izga o‘tib, avloddan avlodga yetkazilgan, ma’lim bir qolipga kelgan shakldir. “Frazeologik birlik har doim subyektga qaratilgan bo‘ladi, ya’ni ular olamni tasvirlash uchungina emas, balki uni talqin qilish, baholash va unga subyektiv munosabat bildirish uchun yuzaga keladi”<sup>1</sup>. F.I. Buslaevning fikricha, “Frazeologizm o‘ziga xos kichik olam, unda avvaldan qo‘llanilgan axloqiy qonunlar, chuqur ma’no, hikmatli gaplarni o‘zida mujassamlashtiradi ”<sup>2</sup>.

Rus olimasi V.A.Maslova lingvomadaniy frazeologizmlarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Aksariyat iboralarda milliy madaniyat belgilari mavjud bo‘lib, ularni namoyon etish kerak.
2. Frazeologik birliklar o‘zida madaniy ma’lumotni saqlaydi, dunyo haqidagi obrazli ifodalarga milliy va madaniy kolorit bo‘yoqdorligini beradi.
3. Milliy madaniyati shakllangan xalqlarning konnotativi (ko‘chma ma’nosi)ni ochib beradi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan tasniflashdan fikr qilishimiz mumkinki, har bir millat o‘z qadriyati va an’analarini hisobga olgan holda milliy-madaniy belgilari

---

<sup>1</sup> Usmanova Sh. Tarjimonlik faoliyatining lingvomadaniy aspektlari. Ma’ruzalar kursi, – Toshkent: ToshDSHI, 2014. – B. 88.

<sup>2</sup> Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С.

mavjud bo'lgan, madaniy ma'lumotlarni saqlay olgan frazeologik birikmalarni shakllantiradi.

Frazeologik birliklar (F.B.) jonli nutq va badiiy asar tilini jonli, ta'sirchan va ma'no bo'yoqdorligini ta'minlovchi vositadir. F.B. tarkibidagi so'zlarning tag zahirida asl ma'nosi emas ko'pincha ko'chma ma'no yotadi. Ma'lum bir millatning o'zigagina xos bo'lgan buyum, libos, diniy tushuncha va tabiat bilan bog'liq bo'lgan so'zlarning ibora tarkibida qo'llanilib, o'ziga xos madaniy F.B.ni shakllanishi tadqiq qilinayotgan til madaniyatining yuksakligidan dalolat beradi.

V.A.Maslovaning F.B. borasida bildirgan fikriga to'xtaladigan bo'lsak, "F.B. sodda qilib aytganda, tanganing ikkinchi tomoni desak bo'ladi. Ularda namoyon bo'lgan obraz o'z rolida qatnashmaydi, balki aynan o'xshash asliyatdan chalg'itadi". Fikrimiz isboti sifatida quyidagi misolga murojaat etamiz, जंगल का तीतर – डरपोक<sup>3</sup>. Iborani so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak, *o'rmonning kakligi*; – iboraning sharhida esa, *hadiksirash, havotirlanish* ma'nolarini anglatadi. Demak, iboradagi *kaklik* so'zi hind madaniyatining naznida qo'rqqoq, har narsadan havotirga tushuvchi insonlarga nisbatan obrozli belgi sifatida hizmat qiladi. Ushbu ibora o'zbek tilidagi *quyon yurak, ovchidan qochgan quyondek, chumchuq pir etsa yuragi shig' etmoq* iboralariga ekvivalent bo'la oladi.

Har bir xalq tilida mavjud bo'lgan F.B.larda malum bir hayvon, parranda, ranglar, o'simliklar, joy nomlarini ramziy belgilar, obraz yoki bo'lmasam o'xshatishlar sifatida olinadi. Misol uchun, दिल्ली का कोतवाल – बहुत घमण्ड करनेवाला<sup>4</sup> so'zma-so'z: *Dehlining markaziy politsiya boshlig'i*; iboraning sharhi: *haddan ortiq kibrlanmoq*; mazkur frazeologiyadagi joy nomi hindistonning markaziy shahri xisoblanadi. Biz bilamizki, har bir mamlakatning markaziy shaharlari rivojlanish, yuksalish markazi bo'lishi bilan bir qatorda o'g'rilikning ham, to'g'rilikning ham o'chog'i sanaladi. Shu boisdan ham markaziy shahardagi o'g'rilarni tutib jazolay olgan politsiyachilar o'zlarida g'urur va manmansirashni yuqori darajaga ko'tarib *kibirlanishgacha* boradilar. Shu boisdan ham *o'zini katta*

<sup>3</sup> बालमुकन्द अर्श मलसियानी, मुहावरे और कहावतें, दिल्ली १९५७। 136 पृ.

<sup>4</sup> बालमुकन्द अर्श मलसियानी, मुहावरे और कहावतें, दिल्ली १९५७। 195 पृ.

*tutadigan, burnining ostidan naryog‘ini ko‘ra olmaydigan* insonlarga nisbatan mazkur ibora qo‘llaniladi.

Yana bir iboraga murojaat etadigan bo‘lsak, चोटी का पसीना एड़ी तक आता है, तब चार गंडे पैसे मिलते हैं।<sup>5</sup> (३१). Tarjimon: To‘rt chaqa pul topkunch ona suting og‘zinga keladi.<sup>6</sup> (45-b)

So‘zma-so‘z: Kokilning teri tovongacha keladi, qachon to‘rt tugunli peysa uchraguncha.

O‘zbek tilidagi *ona suti og‘ziga kelmoq* iborasi juda katta mashaqqatlar bilan biron bir ishni amalgam oshirguncha tinka madori qurib, holdan toygan odamga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki, kap katta odamning ona sutini og‘ziga kelishi aqlga sig‘mas darajadagi ahmoqlik va pushaymonlikdir. Endi hindiy tilidagi mazkur ma‘noni ifodalovchi ibora leksikasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, *kokil* ya‘ni sochda hech zamonda ter chiqqanini ko‘rganmisiz? Ter – issiq haroratda odamning tanasidan chiquvchi suyuqlik bo‘lib, faqatgina teridan ter chiqadi, sochdan emas. *Kokildan ter chiqib tovongach oqishi* esa aqlga sig‘mas darajadagi qiyinchilikni nazarda tutadi.

तुम्हारे पांव में बेड़ियां हैं। क्या अब भी तुम्हारी आंखें नहीं खुलतीं। (२१)

So‘zma-so‘z: sizning oyog‘ingizda kishanlar bor. Hozir ham sizning ko‘zlaringiz ochilmadimi?

Tarjima: Bo‘yningizda ola xurjun borligi esingizdan chiqdimi? Haliyam ko‘zingiz ochilmadimi? (32-b)

Mazkur fraza पांव में बेड़ी पड़ना *oyog‘iga kishan solmoq* o‘zbek tilidagi *ola xurjun yelkasiga tushmoq* iborasiga muqobil bo‘la oladi. Hindiy tilidagi *oyog‘iga kishan solmoq* iborasi o‘zbek tilidagi *oyog‘iga bolta urmoq* iborasiga sinonimdek ko‘rinadi. Aslida bunday emas. *Oyog‘iga kishan solmoq* va *ola xurjun yelkasiga tushmoq* iboradagi obrazlar butunlay boshqa-boshqa ya‘ni, hindiy tilida *oyoq* bo‘lsa, o‘zbek tilida *yelka*, *bo‘yin*; hindiy tilidagi *kishan* so‘zi o‘zbekcha iborada

---

<sup>5</sup> प्रेमचंद. कर्मभूमि. पृ. ३१

<sup>6</sup> Премчанд. Жанг майдони. Амир Файзулло таржимаси. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 45.

*ola xurjun* leksikalari bilan ifodalangan. O‘zbek tilidagi *ola xurjun yelkasiga tushdi* iborasi kimningdir uylanib, turmush tashvishlarini zimmasiga olishidir. Demak, turmush tashvishlarini zimmasiga olish hindiy tilida *oyoqlarga kishan urish* iborasi bilan ifodalanadi. Guvohi bo‘lganingizdek, iboralardagi leksika bir biridan butkul farq qilsada ma’no jihatdan bir birini to‘ldira oladi.

अगर तुम्हें त्यागव्रत लेना था तो विवाह करने की जरूरत न थी, सिर मुँडाकर किसी साधु-संत के चले बन जाते।<sup>7</sup>

Tarjima: Modomiki, gap shunday ekan, boshida uylanmay biror sadhu santga shogird tushing edi.<sup>8</sup>

So‘zma-so‘z: Agar sen masuliyatni olmas ekansan turmush qurishning zarurati yo‘q edi boshingni qirdirib qaysidir sadhu sant bo‘ling.

Bu yerdagi *सिर मुँडाना* iborasi hind mifalogiyasini qamrab olgan, o‘ziga xos diniy tushunchani va hind madaniyatini aks eitira olgan F.B.dir. Chunki, ushbu iborada faqatgina hind madaniyatigagina xos bo‘lgan tushuncha kastachilikni o‘zida aks etirgan. Ibora zohidlikni bo‘yniga olgan, tarki dunyo qilgan insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Mazkur iboraning muqobil variantini o‘zbek tilida uchratish mushkul. Shuning uchun *tarki dunyo qilmoq* birikmasini ibora ekvivalenti sifatida qo‘llaymiz. *सिर मुँडाना* iborasining leksikasi va semantikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, *bosh qirmoq*. Biz bilamizki hind mifalogiyasida zohidlikni qabul qilganlar o‘zlarini dunyo lazzatlari va tashvishlaridan vos kechgan holatda o‘zlarining alohida bir tashqi ko‘rinishlariga egadirlar. Ularning liboslari faqirona, hech qanday hashamatni aks etirmagan oddiyygina matoga o‘rangan, sochlarini kal qilib oldirgan holatda bo‘ladilar. Demak, soch (bosh)ni qirdirib oldirib tashlash, zohidlik belgisi sifatida mazkur ibora qo‘llaniladi.

दूध के दांत नहीं टूटे – अभी उम्र का बच्चा है।<sup>9</sup> so‘zma-so‘z: *sutning tishi sinmagan*; iboraning sharhi: *hali yosh bola* ma’nolarini bildiradi. Bizga ma’lumki yosh bolalarning dastlabki tishlari *sut tishi* deb ataladi, vaqt o‘tgandan keyin esa *sut*

<sup>7</sup> प्रेमचंद. कर्मभूमि. पृ. ३३.

<sup>8</sup> Премчанд. Жанг майдони. Амир Файзулло таржимаси. – Тошкент: Гофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 49.

<sup>9</sup> बालमुकन्द अर्श मलसियानी, मुहावरे और कहावतें, दिल्ली १९५७। 198 पृ.

tishlari o‘rniga suyak tishlar chiqadi. Demak, *sut tishi sinmagan* deganda katta yoshdagi odamlarning o‘zidan kichkina bo‘lgan odamlarga nisbatan bepisandlik bilan qarashiga yoki hali ulg‘aymagan yosh bolalarning ayb ishini silliqlash maqsadida qo‘llaniladigan iboradir. Mazkur frazeologiya o‘zbek tilidagi *suti og‘zidan ketmagan* iborasiga muqobil variant bo‘la oladi. Chunki, *sut* maxsuloti bolalarning dastlabki yeguligi bo‘lganligi sababli umuminsoniyat uchun *sut* so‘zi *bolalik, yoshlikning* ramzi sifatida qaraladi.

V.N. Teliyaning naznida, “til tarkibidagi frazeologizmlar bu – oyna”. Ya’ni tilda mavjud bo‘lgan frazeologizmlar orqali millatning dunyo to‘g‘risidagi o‘y fikrlari, qarashlarini tushunish va anglash mumkin. Chunki oyna biz ko‘ra olmaydigan narsalarni ham ko‘rsata oladi. Qolaversa, ayrim F.B. tarkibidagi so‘zlar o‘z ma’nosida kelmasdan ko‘chma ma’noda qo‘llanilib millatning xarakterini (xulqini) namoyon etadi. Sharq mamlakatlarida oila muqaddas qo‘rg‘on sifatida qaraladi. Uni asrab-avaylash, oilani mustahkamligi uchun jon kuydirish har bir oila a’zosining asosiy burchi desak xato bo‘lmaydi. Shuning uchun ham yangi turmush qurgan oilalarga baxt-saodat tilab *qo‘shganing bilan, qo‘sha qari; moshu guruch bo‘linglar; qo‘sh xo‘kiz bo‘ling* kabi iboralar o‘zbek tilida qo‘llanilsa, hindiy tilida ham shunga o‘xshash frazeologiyalar mavjud. दाल गलना – किसी के साथ निर्वह होना.<sup>10</sup> so‘zma-so‘z tarjima qiladigan bo‘lsak, *yasmiq hil-hil pishmoq*; iboraning sharhida *kim bilandir yashamoq* ma’nolarini bildirib keladi. Demak, hind madaniyatida ham *yasmiq*, yoki *loviyaning hil-hil bo‘lib pishishini* ikki yoshning baxt-saodatiga qiyoslanib o‘xshatiladi.

Hind madaniyatida *yasmiq* bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir frazeologiya mavjud bo‘lib, bu दाल दलिया<sup>11</sup> – ya’ni *yanchilgan yasmiq*. Ushbu iborani mazkur misolda to‘liq mazmunini ko‘rishimiz mumkin, गरीबों के घर में खाने को दाल दलिया ही होता है। - *kambag‘alning uyida yeyish uchun faqatgina yanchilgan yasmiqqina bo‘ladi*. Biz bilamizki, hind taomlari orasida dukaklik o‘simliklar ya’ni mosh,

<sup>10</sup> बालमुकन्द अर्श मलसियानी, मुहावरे और कहावतें, दिल्ली १९५७। 190 पृ.

<sup>11</sup> बालमुकन्द अर्श मलसियानी, मुहावरे और कहावतें, दिल्ली १९५७। 190 प.

loviya, guruch sevib yeyiladigan mahsulotlardan sanaladi. Demak bundan anglashimiz kerakki, kambag'al va nochorlarning uyidan sevib istemol qilinadigan taom mahsulotlarining faqat urvog'inigina yoki supra qoqtisini topishimiz mumkin. Ushbu iboraning o'zbek tilidagi muqobil varianti *uyida sichqon ham hassa tayanib yuradi, qo'l uchida kun ko'rmoq*.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilda mavjud bo'lgan frazeologik birliklardagi ramz va obrazlar ma'lum bir millatning olam haqidagi tushunchasi, o'y fikrlari, diniy e'tiqodi natijasida yuzaga kelgan qarashlardir. F.B.lardagi ramz va obrazlarni lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish uchun avvalam bor o'rganilayotgan til madaniyati, dini, falsalasi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lmog'i lozim. Yana shuni aytish o'rinliki, iboralarni tarjima qilish jarayonida ramz va o'brazlar almashishi mumkin lekin, ma'zmun o'z o'rnida qolmog'i kerak. Chunki, ibora tarkibidagi bir obraz asliyat tili uchun ma'lum bir qiymatga ega bo'lsa, tarjima tilida hech qanday ma'no anglatmasligi mumkin.

V.N. Teliya aytganidek frazeologiya millatning ko'zgudagi aksi bo'la oladi. Zero, ko'zgudagi aks bizning o'zimizdir.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Usmanova Sh. Tarjimonlik faoliyatining lingvomadaniy aspektlari. Ma'ruzalar kursi, – Toshkent: ToshDSHI, 2014.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001.
3. Саломов Ғ. Рус тилидан мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. – Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961.
4. Премчанд. Жанг майдони. Амир Файзулло таржимаси. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
5. प्रेमचंद. कर्मभूमि. पृ. ३१
6. बालमुकन्द अर्श मलसियानी, मुहावरे और कहावतें, दिल्ली १९५७।